

**1920-1930-YILLARDA SURXON VOHASIDA O'QITUVCHI KADRLAR  
TAYYORLASH VA SAVODSIZLIKNI TUGATISH MUAMMOLARI**

**Tillayeva Shohsanam Odil qizi,**

Termez davlat universitetining Magistratura bo'limi,

Tarix yo'nalishi II bosqich magistranti.

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.1520768>**

*Annotatsiya. Ushbu maqolada 1920-1930-yillarda Surxon vohasida Sovet hukumati tomonidan ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda o'qituvchi kadrlarlarni tayyorlash, yangi ta'lim tizimini joriy etish, savodsizlikni tugatish kabi masalalarga alohida e'tibor berildi.*

*Kalit so'zlar: Savodsizlikni tugatish, pedagogik institutlar, malaka oshirish kurslari, A.Xo'jamberdiyev, A.Xidoyatov, „Bitsin savodsizlik” jamiyati,*

**ПРОБЛЕМЫ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ И ЛИКВИДАЦИИ  
НЕГРАМОТНОСТИ В СУРХАНСКОМ ОАЗИСЕ В 1920-1930-Е ГОДЫ**

*Аннотация: В данной статье анализируются процессы реформ в сфере образования, проводимые советским правительством в 1920-1930-е годы в Сурханской долине, в частности, подготовка преподавательских кадров, внедрение новой образовательной системы и ликвидация безграмотности. В рамках государственной образовательной политики рассматривается деятельность педагогических институтов, курсов повышения квалификации и общества "Борьба с безграмотностью", направленных на подготовку учителей и обучение их новым методам преподавания. Особое внимание уделяется деятельности педагогов А.Ходжамбердиева и А.Хидоятова. В статье подробно рассматриваются важные реформы, направленные на ликвидацию безграмотности, передачу знаний учащимся и развитие образовательной системы в обществе.*

*Ключевые слова: ликвидация безграмотности, педагогические институты, курсы повышения квалификации, А.Ходжамбердиев, А.Хидоятов, общество "Борьба с безграмотностью".*

**PROBLEMS OF TRAINING TEACHERS AND ERADICATING ILLITERACY IN THE  
SURKHAN OASIS IN THE 1920S-1930S**

*Abstract. This article analyzes the educational reforms implemented by the Soviet government in the 1920s and 1930s in the Surkhandarya region, focusing on teacher training, the introduction of a new education system, and the eradication of illiteracy. The article*

examines the role of pedagogical institutes, professional development courses, and the "End Illiteracy" society in training teachers and teaching them new pedagogical methods. The activities of educators such as A. Khodjamberdiev and A. Khidoyatov are highlighted. The article provides a detailed overview of the important reforms aimed at eradicating illiteracy, providing knowledge to students, and developing the educational system in society.

**Keywords:** Eradication of illiteracy, pedagogical institutes, professional development courses, A. Khodjamberdiev, A. Khidoyatov, "End Illiteracy" society.

XX asrning boshlariga kelib ko'p miqdorda rus-tuzim maktablarining tashkil etilishi, katta yoshli aholi orasida savodsizlikni tugatish yuzasidan avj oldirilgan ishlar, ko'plab maktablar hamda savodsizlikni tugatish kurslarining ochilishi malakali kadrlarga bo'lgan talabni oshirib yubordi. Sovet hokimiyatining bosh g'oyasi, qattiq mafkuraviy nazoratni o'rnatish va olib borayotgan siyosatni mustahkamlashda umumiy boshlang'ich ta'limni joriy etish, savodsizlikni tugatish kabi islohotlar turardi. Buning uchun vohada yangi sovet maktablari o'qituvchilarga muhtoj bo'lsa-da, lekin ular eski usul maktablari muallimlaridan foydalanmadи, chunki dushman ko'zi bilan qaraldi, ya'ni endi u maktablar biz uchun begona, ular eskilik sarqitlari deb baholandi va shu g'oyaga ishontirish uchun o'z siyosiy ishlarini olib bordilar. Bu esa o'z navbatida vohada milliy pedagogik kadrlar tayyorlash ishini yo'lga qo'yish vazifasini yuzaga keltirdi. Shu maqsadda okrugda qisqa muddatli o'qituvchilar tayyorlash kurslari ochila boshladi. Masalan 1926-yil Termiz shahrida o'n oylik pedagogik kurs tashkil qilindi. 1927-1928-o'quv yilida bu kursni 50 nafar tinglovchi tamomladi va bitiruvchilardan 43 nafari qishloq joylardagi maktablarga safarbar qilindi. J.Amirxonov, A.Xo'jamberdiyev, A.Xidoyatov, E.Pardayev, D.Mirzayev va shu kabi ko'pgina yoshlar ana shu qisqa muddatli kurslarni tamomlab chiqdilar va vohada yetishib chiqqan qaldirg'och o'qituvchilar sifatida faoliyat boshladilar. 1928-yilga kelib bu pedagogika kursi maxsus o'ita bilim yurtiga aylantirildi. [1.B.121].

Shuningdek, 1927 yilda "O'qituvchi kadrlarni tayyorlash bo'yicha" qaror qabul qilindi, bu qaror asosida viloyatda yangi pedagogik institutlar hamda kurslar ochilib, ko'plab yangi o'qituvchilar tayyorlandi. Boysunda o'qituvchi-mutaxassislar tayyorlash bo'yicha 1932-yilda 6 oylik ta'lim tarbiya kursi ochilib, 105 nafar o'qituvchi tayyorlandi. 1933-yilda 70 kishi, 1934-yilda 20 kishi muallimlikni bitirdi. Bundan tashqari, yozgi ta'til vaqtida bu muallimlar pedagogika texnikum va institatlarda malaka oshirishga yuborildi. 1930-yillarda tojik millatiga

mansub bolalar uchun 15 ta o‘quv xonasi, 15 ta bolalar maydonchasida tojik tili o‘quv kurslari tashkil etilib, adabiyotlar va muallimlar bilan ta’minlandi. 1934-yilda 243 bola maktablarga jalb etilib, shundan 231 tasi kolxoz a’zolarini bolalari va 12 tasi yakka xo‘jaliklarning bolalaridan iborat edi. [2.B.166-167].

1920-1930-yillar oralig’ida sovet hukumatining ta’lim sohasida, savodsizlikni tugatish bo‘yicha amalga oshirgan chora tadbirlarini ko’rib chiqamiz.

**1. Sovet Hukumatining Ta’lim Siyosati** Sovet hukumatining ta’lim sohasidagi siyosati asosan savodsizlikni tugatish va o‘qituvchilarni tayyorlashga qaratilgan edi. 1920-yillarning boshlarida Sovet hukumati ta’lim tizimida tub islohotlar o‘tkazdi. Bu jarayonda o‘qituvchilarni tayyorlash uchun yangi kurslar va ta’lim muassasalari tashkil etildi, shuningdek, ta’lim tizimi davlat siyosatining ajralmas qismiga aylandi. **1920 yilda "Savodsizlikni tugatish bo‘yicha" qaror** qabul qilindi, bu qaror Surxondaryo viloyatida ham amaliyotga kiritildi. **1930 yilda "O‘qituvchilarni malaka oshirishga doir qaror"** esa o‘qituvchilarning bilim darajasini oshirishga va yangi pedagogik metodlarni o‘rganishga imkon yaratdi.

**2. Savodsizlikni Tugatish** Savodsizlikni tugatish Sovet hukumati siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri edi. Shuning uchun birinchi navbatda 1920-yil 17-sentabr kuni TAASR Maorif xalq komissarligi tomonidan aholi orasida savodsizlikni tugatish to’g’risida dekret qabul qilindi. Unga ko’ra, 8 yoshdan 40-yoshgacha bo’lgan barcha fuqarolar o’qish va yozishni o‘rganishi shart qilib belgilandi. 1924-yilning boshida esa „Bitsin savodsizlik!” jamiyatiga vujudga keldi. Uning tarkibini o‘qituvchilar va talabalar tashkil qilgan. Savodsizlikni tugatish bo‘yicha ushbu jamiyat tomonidan dastlabki vaqtida 35 ta maktab ochilib, 10200 kishi o’z savodini chiqardi. Rasmiy statistic ma’lumotlarga ko’ra, 1937-yilga kelib, respublikamizda savodsizlik tugatilib, kamsavodli kishilar soni 2 milliondan ziyod bo’lgan. Aholining sovetlar idrokidagi umumiy savodxonligi 67,8 % ga yetgan edi. [3.B.458].

1920-1930-yillarda Surxondaryo viloyatida ham savodsizlikni tugatish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirildi. 1926 yilda amalga oshirilgan statistika ma’lumotlariga ko’ra, Surxondaryoda savodsizlik darajasi 50% dan ortiq edi, ammo 1930 yilga kelib bu ko’rsatkich 20% atrofida bo’ldi. Sovet hukumati o‘qituvchilarni tayyorlash va aholini o‘qitish uchun ko‘plab dasturlar ishlab chiqdi. Bu jarayonda, ayniqsa, qishloq joylarida o‘qituvchilarni tayyorlash va aholini ta’lim olishga jalb qilishda maxsus targ‘ibot ishlari olib borildi. Shuningdek, aholi orasida o‘qish va yozishni o‘rgatish uchun **"Savodsizlikni tugatish bo‘yicha" kampaniya** tashkil etildi.

**3. O'qituvchilarni Tayyorlash.** O'qituvchi kadrlarni tayyorlash 1920-1930-yillarda asosiy muammolardan biri bo'lib qoldi. O'qituvchilarni tayyorlash uchun maxsus kurslar ochildi va yangi pedagogik institutlar tashkil etildi. 1927 yilda tashkil etilgan **pedagogik institutlar** va **malaka oshirish kurslari** orqali 1000 dan ortiq yangi o'qituvchilar tayyorlandi. 1930 yilda viloyatda jami 500 dan ortiq maktab ochildi va o'qituvchilarga malaka oshirish kurslari taklif etildi.

Bundan tashqari, maktabda darslarni tartibga solish, o'qituvchilar ma'suliyatini oshirish yuzasidan Turkiston Maorif xalq komissarligi 1919- yil 29- martda maxsus buyruq chiqaradi. Mazkur hujjatda shunday deyilgan: „Ona tili, riyoziyot, hisob, handasa, trigonometriya, tabiat, tabiiy jug'rofiya, hikmat darslari asl darslar hisoblanganidan shu fanlardan dars beruvchi muallim faqat muayyan bir maktablardagina qolurga tegishlidirlar”. Umuman, 1918-1921 yillarda kurslarda mahalliy millatlardan qariyb 3 ming va rusiyabonlardan 802 muallim tayyorlandi. Ammo bu ko'rsatkichlar o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni qondirmas, ustiga-ustak o'qituvchi tayyorlash darajasi past edi. Pedagogika kurslari va maxsus o'quv muassasalarining bitiruvchilari faqat birinchi bosqich maktabining boshlang'ich sinflaridagina ishlay olar edilar. [4.B.20]. Pedagogik kadrlarni tayyorlashda **o'qituvchilarning pedagogik bilimlari** va amaliy tajribalari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1920-1930-yillarda o'qituvchilarga yangi metodlar va o'quv dasturlari bo'yicha o'quv kurslari tashkil etildi. Bunda o'qituvchilarga nafaqat savodsizlikni tugatish, balki yoshlarni rivojlantirish va ularga yangi pedagogik yondashuvlarni o'rgatish maqsad qilingan edi. 1925-1930-yillarda Surxondaryo okrugida maktablarning muallimlar bilan ta'minlanish darajasi qoniqarsiz edi. 1926- yilda ta'lim tizimidagi vaziyat haqida O'zSSR\_XKS Raisi F.Xo'jayev achinish bilan: Oblastlarimizda aholining ko'pchiligi maktablarga borib o'qishni sira xohlamasdi, ikkinchidan, pedagog xodimlar yo'q. Maktablar ochish mumkin, ammo muallimlarni topib bo'lmaydi. Uchinchidan, darsliklar yo'qligi ham juda yomon ta'sir qilmoqda. Muallimlarni ham, darsliklarni ham tayyorlash uchun bu ishga ancha vaqt kerak. To'rtinchidan, mana shu xalq maorifi ishiga jon-jahdi bilan kirisha oladigan xodimlar shu vaqtgacha yo'q. Siyosatchilar qancha desangiz topiladi. Oliy o'quv yurtlarini va kommunistik universitetlarni bitirib chiqayotganlarning hammasi siyosatchi bo'lib ketmoqdalar, deb to'g'risini aytgan edi. [5.B.477].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mustabid tuzum sovetlarcha savodli shaxslarni shakllantirish, „Savodsizlik” ni tugatish borasida shiddatli kurash olib bordi. Biroq Sovet davlatining mustamlaka xalqlari savodsizligini tugatish tadbirleri mahlliyl millat manfaatlarini

emas, balki madaniy-ma'rifiy vositalar asosida o'lka aholisini kommunistik ruhda qayta tarbiyalab, ularni sotsializmga xizmat qiladigan kadrlar qilib yetishtirishga qaratilgan edi. Bundan ko'zlangan maqsad esa aholi orasida savodsizlikni tugatish bilan bir qatorda ularni yoppasiga kommunistik ruhda tarbiyalashdan iborat edi.

## REFERENCES

1. Tursunov S, Qobilov E, Pardayev T, Murtazoyev B. Surxondaryo tarix ko'zgusida. Toshkent, «Sharq», 2001. – B. 246.
2. Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. Akademnashr nashriyoti, 2011-yil,
3. O'zbekiston tarixi. „Yangi asr avlodi”. –Toshkent, 2003. – B. 478.
4. Mahmudova A, Mardayeva G. O'zbekiston maorif institutlar tarixi. (1920-1927-yillar). Monografiya. –Hindiston, 2023. – B. 76.
5. Xo'jayev F. Tanlangan asarlar. Tom 2. Toshkent: Fan, 1978. – B. 567.